

10-sinf Davlat va huquq asoslari fanidan ChSB - 1.

Sana: _____ Sinf _____ O'quvchining

F.I.SH. _____

1-yarim yillik CHSB savollari original

1. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida tengligi nima deyiladi? (B -2,5 ball)

A) Ijtimoiy himoya B) Gender tenglik C) O'zaro yordam D) Muhofaza

2. Insonning yashash, so'z va e'tiqod erkinligi, turarjoy daxlsizligi qaysi turdagi huquqlarga tegishli hisoblanadi? (B -2,5 ball)

A) Siyosiy huquq B) Ijtimoiy huquq C) Madaniy huquq D) Shaxsiy huquq

3. Xalqaro mehnat tashkilotining "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi" konvensiyaga muvofiq bolalarning mehnat qilishi yoki yollanib ishlashiga necha yoshdan ruxsat etilgan? (B -2,5 ball)

A) 14 yoshdan B) 13 yoshdan C) 12 yoshdan D) 15 yoshdan

4. A. ismli shaxsni ko'chada notanish odam haqorat qildi. Ushbu vaziyatda fuqaro huquqini himoya qilish bo'yicha qayerga murojaat qilishi kerak? (Q-4,5 ball)

A) Mahalla raisiga B) IIB organlariga C) Adliya organlariga D) Ombudsmanga

5. Quyidagilardan nikohni tuzishga monelik qiladigan holatlarni aniqlang. (Q-4,5 ball)

1) er-xotindan biri ilgari oila qurgan bo'lsa; 2) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa; 3) er-xotindan biri chet el fuqarosi bo'lsa; 4) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo'lsa; 5) loaqal bittasi boshqa millat vakili bo'lsa; 6) nasl-nasabi bo'yicha to'g'ri tutash qarindosh bo'lsa.

A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

6. Quyidagilardan nikohni bekor qilish tartibini aniqlang. (Q -4,5 ball)

1. FHDY organida nikohni bekor qilish	a) o'rtada nizo bo'lmasa b) voyaga yetmagan farzandlar va mol-mulk bo'lsa c) er-xotin o'rtasida nizo mavjud bo'lsa
2. Sud orqali nikohni bekor qilish	d) voyaga yetmagan farzandlar va mol-mulk bo'lmasa

A) 1- a, d; 2- b, c; B) 1- b, d; 2- c, a; C) 1- a, c; 2- d, b; D) 1- a, b; 2- c, d;

7. Quyidagilardan bir tomonning arizasiga ko'ra nikohni bekor qilish sabablarini toping. (Q -4,5 ball)

1) bir tomonning boshqa nikohga kirishi; 2) tomonlarning birini bedarak yo'qolishi; 3) tomonlarning birini vafot etganligi; 4) tomonlarning birini chet davlatda yurganligi; 5) tomonlarning yaqin qarindoshligi; 6) tomonlarning birini ruhiy kasalligi.

A) 1, 2, 6

B) 2, 3, 6

C) 1, 4, 5

D) 2, 3, 4

8. 25 yoshli A. va 23 yoshli M. oila qurish maqsadida FHDY organiga ariza topshirishadi. Ular nikohdan oldin o'tkaziladigan tibbiy ko'rikdan o'tishni

hohlashmaydi. Bu holatda ularning harakati qonuniy hisoblanadimi? (Q – 4,5 ball)

- A) Ha, agar ikki tomon o‘zaro rozilik bildirsa, tibbiy ko‘rikdan o‘tish shart emas.
- B) Yo‘q, tibbiy ko‘rik nikohlanuvchilar uchun majburiy hisoblanadi va bepul amalga oshiriladi.
- C) Faqat bir tomon sog‘lig‘idan shubhalansa, tibbiy ko‘rikdan o‘tish talab etiladi.
- D) Tibbiy ko‘rik ixtiyoriy bo‘lib, faqat ayrim kasalliklarni aniqlash uchun o‘tkaziladi.

9. 19 yoshli S. o‘z ixtiyori bilan o‘qishni davom ettirmoqchi, biroq onasi uni o‘z qarindoshlaridan biriga majburlab turmushga bermoqchi. Ushbu holatda onaning harakati qonuniymi?(Q – 4,5 ball)

- A) Ha, chunki ota-onaning farzand hayotiga aralashish huquqi bor.
- B) Yo‘q, chunki nikoh faqat tomonlarning o‘zaro roziligi asosida tuziladi, majburlash qonun bilan taqiqlangan.
- C) Ha, agar onaning niyati farzandining kelajagi uchun bo‘lsa.
- D) Nikohga ruxsat berish FHDY organining qaroriga bog‘liq, ota-ona xohishi muhim emas.

10. R. ismli ayol ikki farzandi bilan yashaydi. U sobiq turmush o‘rtog‘i D. dan sud qaroriga binoan har oy aliment olishi kerak. Ammo D. doimiy ish joyini o‘zgartirib, maoshini yashirgan, oxirgi 8 oy davomida aliment to‘lamagan. Ushbu vaziyatda qonuniy jihatdan eng to‘g‘ri chora qaysi bo‘ladi? (M -5,5 ball)

- A) D.ning aliment to‘lamagan davr uchun qarzdorlik summasi hisoblab chiqilib, uning mol-mulki yoki ish haqi hisobidan majburiy undirib olinadi.
- B) Ijro byurosi D.ga ogohlantirish xati yuboradi va keyingi to‘lovlargina nazorat qilinadi.
- C) R. yangi sud jarayonini boshlashi kerak, chunki eski qaror kuchini yo‘qotgan bo‘ladi.
- D) D. hozirda ish joyini o‘zgartirgan bo‘lsa, aliment to‘lash majburiyatidan ozod etiladi.

O‘quvchining to‘plagan bali: _____

Tekshiruvchi o‘qituvchi: _____ (imzo)